

**Ways to improve the professional competence of future teachers of  
military education**

**Khudoyberganov Shakhzod Bakhodir ugli**

**Tdpu named after Nizami**

**Specialty "military education to the call"**

**Phase II undergraduates**

The level of training of qualified specialists who meet the requirements of today is determined first of all in the qualities of self-sacrifice, forgiveness, kindness, seeking, love of their own science and children to the teachers of military education who will be in the process of providing them with knowledge, dressing skills and qualifications, education.

Chaqiriqqacha bo‘lgan o‘quvchi-yoshlar harbiy ta’lim sirlari bilan birga ajdodlar tomonidan to‘plangan bilim, odob, urf-odat, milliy-ma’naviy qadriyatlar va hayotiy tajriba asosida jamiyatda o‘zining munosib o‘rnini egallashi, bilim salohiyati va dunyoqarashining shakllanishida harbiy ta’lim o‘qituvchisi, uning kasbiy tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, chaqiriqqacha bo‘lgan o‘quvchi-yoshlarda milliy armiyamiz talabidan kelib chiqqan holda yuqori darajadagi professional bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish harbiy pedagogik faoliyat sohasining ustuvor vazifasi hisoblanadi.

«Tarbiyachilarning o‘ziga zamonaviy bilim berish, ularning ma’lumotini, malakasini oshirish kabi paysalga solib bo‘lmaydigan dolzarb masalaga duch kelmoqdamiz. Mening fikrimcha, ta’lim—tarbiya tizimini o‘zgartirishdagi asosiy muammo ham mana shu yerda. O‘qituvchi bolalarimizga zamonaviy bilim bersin, deb talab qilamiz. Ammo zamonaviy bilim berish uchun avvalo, murabbiyning o‘zi ana shunday bilimga ega bo‘lishi kerak»<sup>1</sup>. - deb ta’kidlaydi.

Bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi dastur doirasi bilangina cheklanib qolmasligi zarur, uning bilimi, mahorati ancha keng va chuqr bo‘lmog‘i lozim.

Jumladan, hozirgi paytda ta’lim tizimi taraqqiyoti insonni bilimning turli sohalaridagi hilma-hil, mustaqil, maqsadga yo‘naltirilgan faoliyat turlariga jalb qilish asosida intelektual va axloqiy kamolotini ta’minlashga qaratiladi. Bilimlarni jadal yangilanib borishi harbiy ta’lim tizimi oldiga quyidagilarga qodir bo‘lgan bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash vazifasini qo‘yadi:

- hozirgi zamon jamiyatining jadal o‘zgarayotgan sharoitlariga moslashish;
- samrali ishslash uchun zarur bo‘lgan zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni mustaqil o‘zlashtirish, turli vazifalarni hal etishda ularni qo‘llash, tanqidiy fikrlash,

<sup>1</sup> Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Т., 1997. 7-бет.

real voqeylekda vujudga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida sezish va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ularni hal qilishning samarali yo‘llarini izlash;

- axborot bilan omilkorona ishlash, axborotni topish va ishlov berish, shuningdek axborot va halqaro axborot ta’lim resurslaridan samarali foydalanish;

- turli fan sohalari bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarni uyushtirgan jamoalar bilan ishlay olish.

Bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida o‘qituvchi kompetentligiga ham e’tibor qaratish lozim.

**Kompetentlik** – olingan nazariy bilim, ko‘nikma va malakalarning majmuasini amaliyatga mustaqil va ijodiy qo‘llay olish darajasi hisoblanib, bu ham malakaviy pedagogik amaliyat jarayonida va chaqiriqqacha harbiy ta’limning keyingi faoliyatda shakllanib boradi.

Bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligi va kommunikativlik, tashkilotchilik, fanda doir axborotlarni egallab olishida ko‘rinadi. Bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining ijtimoiy kompetentligi jamiyatdagi o‘zgarishlarga tez moslasha olishida, axborotni topish va ishlov berishida, shaxsiy tarkib bilan ishlay olishida, jamoat ishlarida faol ishtirok etishida namoyon bo‘ladi. Bo‘lajak harbiy ta’lim o‘qituvchilarining metodologik kompetentligi esa doimo izlanuvchan bo‘lishida, kasbiy va ijodiy kompetentlikni rivojlantirib borishda, loyhalash madaniyati va ularni innovatsion faoliyatda qo‘llay olishida ko‘rinadi.

#### *4. Amaliy kasbiy kompetentlik*

##### **4.1. Pedagogik-psixologik tayyorgarlik, mashg‘ulotlarni tashkil qilish va o‘tkazish mahorati**

Pedagog ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llaniladigan o‘qitish shakllarining pedagogik-psixologik asoslari; psixodiagnostika usullaridan foydalanish; o‘qitish shakllarida o‘qitish metodlari va vositalaridan o‘rinli foydalana olish; ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarining uyg‘unligi, uzviyligini ta’minlay olish; pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini egallagan bo‘lishi lozim. Pedagog ma’ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlariga qo‘yiladigan didaktik talablarni; didaktik maqsadlar asosida mashg‘ulotning har bir bosqichi uchun reproduktiv o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish; fanlararo, mavzulararo bog‘lanishni amalga oshirishni bilishi lozim.

##### **4.2. Tarbiyalashning usul va vositalarini egallaganlik**

Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etishda pedagog ilmiy-nazariy, ma’naviy-ma’rifiy, madaniy qadriyatlardan samarali foydalanish malakasiga ega bo‘lish, o‘qitish jarayonida yoshlar ongiga milliy g‘oyani singdirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini bilishi; yoshlarni jamoaga birlashtirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, bajarilgan ishni baholay olish, ta’lim muassasalarida tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning shakllarini, pedagogik etika me’yorlarini bilishi talab etiladi.

#### **4.3. Mustaqil va ijodiy ishlarni tashkil etish**

Pedagog yoshlarda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati va nazariy asoslarini bilishi; iqtidorli yoshlarni aniqlash diagnostikasini, mustaqil ta’limning tashkiliy va o‘quv-metodik ta’mintoni yaratish yo‘llarini bilishi, o‘quv materiali mazmuni asosida vosita, metod va shakllarini samarali tanlash va uyg‘unlashtira olishi lozim.

#### **4.4. O‘zlashtirish monitoringini amalga oshirishga tayyorlik**

Pedagog yoshlarning bilimlarini ob’ektiv baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ularni mukammal ravishda reyting nazoratda qo‘llashga qaratilgan didaktik vositalar majmuasini ishlab chiqish malakasiga ega bo‘lish; yoshlarning bilimlarini ob’ektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting nazoratida qo‘llash, standart testlarni ishlab chiqish va qo‘llay olish malakasiga ega bo‘lish; reyting tizimi topshiriqlarini reproduktiv va produktiv, qisman izlanishli va ijodiy darajada tuzish va qo‘llay olish; o‘quv materialining didaktik tahlili asosida o‘zlashtirishi talab etiladigan o‘quv elementlari, material hajmini belgilash va shu asosda ta’lim mazmunini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish; mashg‘ulotlarda yoshlarning bilish faoliyatini faollashtirish uchun muammoli savollar majmuasini tuza olish; yozma ishlar, og‘zaki savol-javoblar, amaliy ish natijalarini tahlil qilish, aniqlangan xato va kamchiliklar asosida ta’lim jarayoniga tegishli tuzatishlar kirita olish; o‘quv faoliyatini tashkil etish, boshqarish va natijasiga baho berish asosida mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqa olishi lozim.

#### **4.5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish**

Pedagoglar informatika va axborot texnologiyalari asoslari, axborotlarni saqlash, qayta ishslash, tarqatish va namoyish qilishni bilishi, Microsoft Office dasturlari, jumladan Windows operatsion tizimida ishlay olishi, Microsoft Excel dasturiy muhitida jadvalli ma’lumotlarni qayta ishslash texnologiyasi, Internetning asosiy imkoniyatlari, Internetda axborot maydonlarini saralovchi Web saytlari

haqida ma'lumotlar, Internetdan ma'lumot olish va ma'lumotlar kiritish texnologiyalarini bilishi, elektron pochta va undan foydalanish texnologiyalarini, dasturiy ta'minotning asosiy turlarini bilishi va foydalana olishi, fanlardan maxsus taqdimotlar va elektron resurslar tayyorlashi va qo'llay olishi, ta'lim jarayonida amaliy masalalarni yechishda axborot texnologiyalarini qo'llash; masofaviy ta'lim elektron o'quv-metodik bazasini yaratish va undan foydalana olishi lozim.

#### **4.6. Xorijiy tillarni o'zlashtirish**

Xorijiy tilda turli janrdagi (teleko'rsatuv, radio eshittirish, e'lonlar, yangiliklar va h.) audio va video matnlarni eshitib, asosiy ma'nosini tushunib muhokama qila olish; har qanday og'zaki nutqni tinglab tushunish; xorijiy tilda turli hujjatli va badiiy filmlar, tele suhbatlar, tokshoular, spektakllarni tushuna olish; kasbiy va shaxsiy qiziqishiga doir ma'ruzalar, prezентatsiyalar, nutqlarni tushuna olish. Qisqa oddiy qaydlarni va axborotlarni yoza olish, shaxsiy xususiyatga ega murakkab bo'lmagan xatlar yoza olish, so'rovnama, ma'lumot daftarlarini to'ldira olish, tarjimai hol yozish, e'lon va maktublar tuza olish, grammatik va leksik xatolarsiz qisqa bayon va insholar yozish, e-mail, Internet forumlariga xatlar yezish; yozma nutqda matn janriga hamda maqsadiga muvofiq rasmiy yeki norasmiy uslubni tanlash; tanish mavzular bo'yicha ma'ruza annotatsiyalari, tezislari yozish.

#### **4.7. O'z-o'zini kasbiy rivojlantirish**

Pedagog ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy-nazariy jihatdan o'zlashtirgan bo'lishi, rivojlanish tarixi, fanda erishilgan yutuqlar, muammolar, ilmiy-tadqiqot va izlanishlar natijalaridan xabardor bo'lish; axborot madaniyatini egallaganlik; xorijiy tillarni o'zlashtirganlik; darsliklar, o'quv qo'llanmalari, o'quv-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali va o'z o'rnida foydalana olish. Fanning maqsadi, vazifalari, predmeti va ob'ekti, asosiy metodlari; fanga qo'yiladigan asosiy talablar; umumiyluk yuklama hajmi va uning taqsimoti; fan bo'yicha tayyorgarlik ko'rayotgan bo'lajak mutaxassisiga qo'yiladigan umumiyluk malaka talablari; ilmiy-metodik ishlarni amalga oshirish, kasbiy faoliyat jarayonini tashkil etish va boshqarish; fan taraqqiyotining axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga bog'liqligi; foydalilanidigan asosiy adabiyotlar; fan bo'yicha kasbiy kompetentlik darajasi; fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan gorizontal va vertikal uzviyligi ta'minlanganligi; fanni taraqqiy etish muammolari va yechimlari.

Taklif etilayotgan model oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning zamонавиј bosqichda pedagog shaxsiga qo'yilayotgan talablarni o'zida aks ettiradi. Respublikamizda pedagog kadrlar tayyorlash borasida yetakchi oliy ta'lim

muassasasi hisoblangan universitetimizda ta’lim va tarbiya mazmuni, innovatsion o‘quv-metodik majmualar va elektron ta’lim resurslari, o‘quv-moddiy baza yuksak ma’naviyatli, yetuk pedagog shaxsini shakllantirishga qaratilmoqda.

### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1997. 7-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari. – T.: Adolat, 2002. – №11. – 287 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiylar harbiy majbariyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni //O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari. – T.: Adolat, 436-11-son. 2002. – 5 b.
4. “Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash” fani o‘quv dasturi. – T.: “Bilim” nashriyoti, 2005. – 176 b.
5. Qutlimuratov Y. Q. et al. Algorithm for the implementation of management decision support in agricultural production //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – T. 12. – №. 8. – C. 84-89.
6. Qulbaevich Q. Y., Jenisbaevna K. A., Yusupovna K. U. THE CREATION OF A SUPPLEMENTARY SOFTWARE DEVICE FOR PRODUCTION MANAGEMENT IN THE DIGITALIZATION OF AGRICULTURE //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – T. 10. – C. 20-22.
7. Uteulievich U. N., Kulbaevich K. Y. ALGORITHM OF SOLUTION OF ONE TWO-CRITERIA STOCHASTIC ECOLOGY-ECONOMIC PROBLEMS OF AGRICULTURAL PRODUCTION //September–October. – 2017. – C. 141.
8. Uteuliev N. U., Qutlimuratov Y. Q., Yadgarov S. A. Using the methods and optimizing criteria in making the managing decisions of agricultural production //2019 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT). – IEEE, 2019. – C. 1-3.
9. Qulbaevich Q. Y., Yusupovna K. M. Principles of system approach to analysis of production in agricultural enterprises //European science review. – 2018. – №. 7-8. – C. 238-240.